



Systematicity and continuity of competencies for future technology teachers

Shodyorbek DUSCHONOV¹

Urgench State Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2024

Received in revised form

15 December 2024

Accepted 20 January 2025

Available online

25 February 2025

Keywords:

competence,
basic competence,
professional competence,
specialized competence,
competency,
continuity,
systematicity,
qualification requirement,
design,
modeling, programming.

ABSTRACT

This article analyzes the definitions, content, and essence of foundational, professional, and specialized competencies. It also presents perspectives on ensuring the systematic development and continuity of these competencies for future teachers of technological education.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss1-pp370-374>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari kompetensiyalarining tizimligi va uzviyligi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

kompetensiya,
tayanch kompetensiya,
kasbiy kompetensiya,
maxsus kompetensiya,
kompetentlik,
uzviylik,
tizimlilik,
malaka talabi,
loyihalash,
modellashtirish,
dasturlash.

Ushbu maqolada tayanch, kasbiy va maxsus kompetensiyalarga berilgan tariflar, ularning mazmun va mohiyati tahlil qilingan hamda bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining tayanch, kasbiy va maxsus kompetensiyalarining tizimligi va uzviyligini taminlash yuzasidan fikrlar bayon qilingan.

¹ Teacher, Urgench State Pedagogical Institute. E-mail: duschnovshodiyor@gmail.com

Систематичность и преемственность компетенций будущих преподавателей технологических дисциплин

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

компетенция,
базовая компетенция,
профессиональная
компетенция,
специальная компетенция,
компетентность,
преемственность,
системность,
квалификационные
требования,
проектирование,
моделирование,
программирование.

В данной статье проанализированы определения базовых, профессиональных и специальных компетенций, раскрыты их содержание и сущность, а также изложены соображения по обеспечению системности и преемственности базовых, профессиональных и специальных компетенций будущих учителей технологического образования.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida "Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish; oliy ta'limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta'lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish". kabi bugungi kunning eng dolzarb masalalari alohida qayd etib o'tgan edi [1].

Zamonaviy jamiyatda olib borilayotgan islohotlar ta'lim tizimiga nisbatan yangi yondashuv va yuksak talablarni ilgari surmoqda. Bu talablar doirasida ishlab chiqarish sohasidagi kuchayib borayotgan raqobatga bardosh bera oladigan, keskin texnologik va ijtimoiy o'zgarishlarga moslasha oladigan, mehnat bozori ehtiyojlariga mos, yuqori malakali mutaxassislarni shakllantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Xususan, "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim davlat ta'lim standartlari"da texnologik ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak o'qituvchilarga nisbatan qo'yilayotgan yangi va yuqori talablar ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni taqozo etadi. Shu munosabat bilan, mazkur yo'nalishda pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, samarali mexanizmlar va metodlarni ishlab chiqish, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Fan va texnologiyalar sohasida sodir bo'layotgan jadal taraqqiyot esa oliy ta'lim muassasalarida talabalarni zamonaviy texnika va texnologiyalarga tayyorlashda ta'lim mazmuni, shakllari va uslublarini tubdan yangilashni taqozo qilmoqda [2]. Natijada ta'lim tizimiga yangi davlat ta'lim standartlari va milliy o'quv dasturlari joriy qilinmoqda. Bu holat o'z navbatida bo'lajak mutaxassislarga qo'yilayotgan talablarning oshishiga olib kelmoqda. Shu bois, zamonaviy jamiyat nafaqat o'quvchilarga zarur bilimlarni yetkazishga qodir, balki ijodiy salohiyatini namoyon eta oladigan, tashabbuskor mutaxassislarni ko'rishni istaydi. Hozirgi kunda davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qiluvchi asosiy kasb egalaridan

biri – bu o'qituvchidir. Chunki aynan o'qituvchi kelajakdagi malakali kadrlarni tayyorlovchi yetakchi kuch hisoblanadi. Shu sababli, mamlakatimizdagi har bir ta'lim muassasasi va har bir fan o'qituvchisi zamon talablariga javob bera oladigan, bilimli, kasbiy raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlab berish mas'uliyatini zimmasiga olgan. Xususan, texnologik ta'lim yo'nalishida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar ham davlat va jamiyat taraqqiyotida munosib hissa qo'shmoqdalar.

Texnologik ta'lim mashg'ulotlarida esa "yaratish" va "ta'mirlash" faoliyatiga yo'naltirilgan bilimlar, amaliy ko'nikmalar, malakalar hamda kasbiy kompetensiyalar shakllantiriladi. Bu yo'nalish ishlab chiqarish va ilm-fanni birlashtiruvchi ko'prik vazifasini bajaradi hamda o'quvchilarni tadbirkorlikka yo'naltirish imkonini beradi. Texnologik ta'lim o'qituvchisi esa o'quvchilarning o'z hayotlarida munosib o'rin egallashlariga, ularning shaxsiy qobiliyatlaridan kelib chiqib kasb-hunar tanlashlarida muhim yo'nalish beruvchi sifatida harakat qiladi. "Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilariga qo'yiladigan malaka talabalarida, texnologik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablarda: talabalarning ilmiy va dunyoviy bilimlarga ega bo'lishi; ijtimoiy muammolar va jarayonlarni tahlil qila olishi; o'z tarixini bilishi, ma'naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qilishi" [3]; va ilmiy asoslay olishi; tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi; insonning boshqa insonga, jamiyatga, atrof-muhitga bo'lgan munosabatini belgilovchi huquqiy va ma'naviy mezonlarni bilishi; axborotni yig'ish, saqlash, qayta ishlash, uzatish va ulardan foydalanishni bilishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi; elektron axborot ta'lim muhitida ta'lim jarayonini pedagogik loyihalashtirish; bitta xorijiy tilni erkin so'zlashuv darajasida egallagan bo'lishi; sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvurga ega bo'lishi; o'zini jismoniy chiniqtirish uquv va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerakligi qayd etilgan.

So'nggi yillarda pedagogik-psixologik adabiyotlarda, shuningdek, respublikamiz va xorijiy mamlakatlarning ko'plab yetuk pedagog olimlari ilmiy izlanishlarida "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimiga kompetentlikka yo'naltirilgan yondashuv g'oyasi xalqaro adabiyotlarda XX asrning 60-yillaridan boshlab shakllana boshlagan. Kompetensiya masalasi uzoq yillardan beri ilmiy doiralarda muhokama qilinib, uni chuqur o'rganishga bag'ishlangan turli tadqiqotlar olib borilmoqda.

"Tayanch kompetensiyalar" atamasi, o'z mohiyatiga ko'ra, shaxsning jamiyatdagi faoliyatida dolzarb va istiqbolli ahamiyatga ega bo'lgan sohalarga oid bilimlar, amaliy ko'nikmalar va faoliyat usullarining majmuini ifodalaydi. Bunday kompetensiyalarni egallash, bir tomondan, insonning shaxsiy va ijtimoiy jihatdan muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga zamin yaratadi, ikkinchi tomondan esa, jamiyatning ma'lum sifat darajasiga ega bo'lgan inson resurslariga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi [4].

Kompetensiyalar tizimida, ayniqsa, ta'lim kompetensiyalarini alohida ajratib ko'rsatish lozim. Ta'lim kompetensiyasi bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisining kelajakdagi faoliyat modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuni unutmash kerakki, ayrim kompetensiyalar boshqalariga nisbatan umumiyroq yoki ko'proq ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Shu asosda ular uchta asosiy darajaga bo'linadi:

Tayanch kompetensiyalar – ta'lim mazmunining umumiy (metapredmet) qismini tashkil etadi va barcha fanlar kesimida muhim ahamiyatga ega;

Umumpredmet (kasbiy) kompetensiyalar – ayrim fanlar yoki ta'lim yo'nalishlariga xos kompetensiyalarni qamrab oladi;

Predmetga oid (maxsus) kompetensiyalar – ma'lum bir fan yoki mutaxassislik doirasida shakllanadigan, oldingi ikki turga qaraganda ancha tor doiradagi maxsus ko'nikmalardir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tayanch kompetensiyalarning butun dunyo bo'yicha yagona ro'yxati mavjud emas. Chunki har bir mamlakatning o'ziga xos madaniy an'analari, milliy mentaliteti va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasiga qarab, ta'limga qo'yiladigan talablar farq qiladi.

Kasbiy kompetensiya – bu jamiyatning o'z fuqarolariga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasi bo'lib, ularning ro'yxati ma'lum bir mamlakatdagi ijtimoiy muhit bilan belgilanadi va bu ro'yxat tadqiqotchi olimlarimiz tomonidan quydagicha ishlab chiqildi:

Kommunikativ kompetensiya – ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi – media manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi – doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi – jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya – vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi – aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Kasbiy kompetentlik – bu “shunchaki pedagogik bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish emas, balki didaktik metodlar va ish usullarini, pedagogik munosabat ko'nikmasini mohirona qo'llay olishdir” [5].

Maxsus kompetensiyalar (ma'lum bir fan sohasiga oid kompetensiyalar) – bu kasbiy faoliyatning ma'lum bir turini amalga oshirishga yordam beradi va ular tayanch va kasbiy kompetensiyalar asosida shakllanadi. Maxsus kompetensiyalar mutaxassisning kasbiy muammolarini hal qilish uchun ma'lum bir fan sohasida shakllangan bilim,

ko'nikma va malakalarini shakllantiradi, ya'ni oliy ta'lim bitiruvchisi texnologik ta'lim o'qituvchisi bo'lib, nafaqat kasbiy muammoni hal qilishi, balki fan sohasida texnologik ta'lim bo'yicha texnologik jarayonlarni loyihalovchi mutaxassis bo'lishi kerak [6].

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini shakllantirish – ularning kelgusidagi kasbiy faoliyati samaradorligini belgilovchi asosiy omillardandir. Maxsus kompetensiyalar o'z ichiga texnologik tafakkur, amaliy tajriba, materiallar bilan ishlash, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish va ta'lim metodikasini puxta egallashni oladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bu kompetensiyalarni samarali rivojlantirish uchun ta'lim jarayoniga ijodiy loyiha faoliyatini kiritish muhim didaktik vosita hisoblanadi. Ijodiy loyihalar talabalarda mustaqil fikrlash, muammoni aniqlash, yechim taklif qilish, amaliy mahsulot yaratish, iqtisodiy tahlil qilish va taqdimot ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ijodiy loyiha metodikasi yordamida maxsus kompetensiyalar real hayotiy vazifalar orqali shakllantiriladi, bu esa kasbiy tayyorgarlikni amaliyot bilan bog'laydi. Shuning uchun ham bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda ijodiy loyiha asosidagi yondashuvni tizimli joriy etish, o'quv rejalari va dasturlarini shu asosda qayta ko'rib chiqish dolzarb vazifa sifatida qaralishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi 5847-sonli farmoni
2. O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2021-yil 16-iyul 311-sonli buyrug'i 2021, 2 b.
3. 60112300 – Texnologik ta'lim ta'lim yo'nalishining malaka talablari. O'zR OO'MTVning 25.08.2021-yildagi buyruq № 365
4. Muslimov N. va boshqalar. Pedagogika (nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun). – T.: TDPU. 2013. – 15-25 b.t.
5. Hamidov J.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasi: ped. fan. dokt. diss. – T., 2017. – 337 b.
6. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish. Metodik qo'llanma. –T.: TDPU, 2006. – 46 b.
7. <http://www.ziyonet.uz/>
8. <http://www.pedagog.uz/>
9. <http://www.texnologiya>